

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
№2 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI

Toshkent sh.
Rais – professor N.Q.Xaydarov
Kotib – dotsent A.A.Yuldahev

28 sentabr 2022 yil

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

Kun tartibi:

1. 2021-2022 o'quv yili bahorgi semestr natijalarining tahlili va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar
Ma'ruzachi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent S.R.Baymakov
2. 2022-2023 o'quv yiliga bakalavriatura va magistratura yo'nalishlariga qabul bo'yicha hisobot. TDSI litseyi qabuli.
Axborotchi: Qabul hay'ati mas'ul kotibi t.f.d., dotsent U.N.Vohidov
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limining asosiy faoliyat turlari, "Komplaens nazorat" tizimini joriy etish va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi.
Ma'ruzachi: Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Sh.O.Sharipov
4. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
5. Turli masalalar

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: 2021-2022 o'quv yili bahorgi semestr natijalarining tahlili va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar

Ma'ruza'chi: O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent S.R.Baymakov

QAROR QILINDI:

1. Kredit-modul tizimi bo'yicha 2022/2023 o'quv yili uchun mahalliy va xorijiy tajribadan foydalangan holda yangi o'quv reja va dasturlar yaratilsin;

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari
Muddat – 1 oy muddatda

2. Fanlarni o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashda o'quv adabiyotlarining zamonaviy shakllari - elektron darslik va qo'llanma shakllarida yaratish takomillashtirilsin;

Mas'ul – ARM boshlig'i va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

3. Ta'lim tizimini raqamlashtirish yakunlansin - HEMIS platformasini kafedralar tomonidan o'zlashtirilishiga erishilsin va o'quv jarayoniga elektron jurnal va elektron dars jadvali joriy qilinsin;

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari

Muddat – 1 oy muddatda

4. Institutga moliyaviy mustaqillik berilganligi munosabati bilan har bir professor-o'qituvchini rag'batlantirishning KPI tizimi joriy etilsin hamda har bir yaratilgan mahsulotni moliyaviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilsin.

**Mas'ul – Barcha kafedra mudirlari, ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi,
reja-moliya bo'limi boshlig'i**
Muddat – doimiy

5. Fanlarni kesimida o'quv adabiyotlarining yangi avlodini zamonaviy shaklda (elektron darslik) yaratilsin va Kredit modul tizimga moslashtirilsin.

Mas'ul – Barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi



N.K. Xaydarov
N.K.Xaydarov